

OMONAT DAFTARCHASI RASMIYLASHTIRILADIGAN TALAB QILIB OLINGUNCHA DEPOZIT HISOBRAQAMI _____ -SONLI SHARTNOMASI

Toshkent shahri

« ____ » _____ 2019 yil

Bundan keyin «Bank» deb nomlanuvchi «Tenge Bank» ATB nomidan (*sana*)da berilgan ____-sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi (*bo'linma nomi va FIO*), bir tarafdin, va bundan keyin «Omonatchi» deb nomlanuvchi (*sana*)da (*hujjatni bergan organ*) tomonidan berilgan (*shaxsni tasdiqlovchi hujjatning seriya va raqami*) asosida harakat qiluvchi (*mijozning FIO*), ikkinchi tarafdin, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1. Ushbu shartnomaga ko'ra «Bank» «Omonatchi»dan olingan yoki «Omonatchi» uchun qabul qilingan pul mablag'larini (bundan keyin - omonat) talab qilib olinguncha depozitga qabul qiladi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hisob-kitob va kassa xizmatlarining barcha turlarini amalga oshiradi.

1.2. Ushbu depozit «Omonatchi» tomonidan omonat daftarchasi rasmiylashtirilgan holda ochiladi.

1.3. Omonatchiga seriyasi TEB [book_number]-sonli omonat daftarchasi beriladi.

1.4. «Bank» «Omonatchi» uchun So'm valyutasida _____-sonli hisobraqamini (bundan keyin hisobraqam deb nomlanadi) ochadi.

1.5. Ushbu shartnoma «Omonatchi» ning birinchi talabiga binoan pul mablag'larini (to'liq yoki qisman) berish va Bank tariflariga muvofiq belgilangan foizlarni to'lash sharti bilan muddatsiz hisoblanadi.

2. OMONATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. «Omonatchi» quyidagilarga majbur:

2.1.1. Ushbu shartnomaning shartlariga rioya qilish.

2.1.2. Bank xizmatlari narxini bankda va/yoki Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan, operatsiyani o'tkazish sanasida amal qiluvchi bank tariflariga muvofiq to'lash.

2.1.3. To'lov topshiriqnomasini va unga ilova qilinadigan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini ta'minlash.

2.1.4. Bankka taqdim etilgan hisob-kitob va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligi uchun mustaqil ravishda to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish.

2.1.5. Omonat daftarchasini but va yaxshi holatda saqlash, unga biror ma'lumot kiritmaslik, omonat daftarchasi yo'qotilgan holda bu haqda bankka yozma ravishda xabar berish.

2.1.6. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

2.1.7. «Bank» ning ishlash rejimiga rioya qilish.

2.1.8. O'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar, yashash joyi va aloqa raqamlarining o'zgarishi to'g'risida o'sha kunda darhol «Bank»ka xabar qilish, shuningdek shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini taqdim etish.

2.1.9. Ushbu «Omonat» bo'yicha biror bir operatsiyalarni amalga oshirishda shaxsni tasdiqlovchi hujjat (shuningdek, shaxsning vakili uchun – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma) taqdim etilishi shart.

2.2. «Omonatchi» quyidagilarga haqli:

2.2.1. O'z hisobraqamiga pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan ham naqd, ham naqdsiz shaklda kiritish.

2.2.2. Ushbu shartnoma shartlari bo'yicha depozit miqdorini to'ldirish.

2.2.3. Omonatni shaxsan o'zi ham, bosharti O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z vakili orqali ham (ishonchnoma orqali) tasarruf etish.

2.2.4. Bankdan ushbu shartnoma shartlariga rioya qilishni talab qilish.

3. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «Bank»ning majburiyatlari:

3.1.1. «Omonatchi» tomonidan olingan mablag'larni hisobraqamda hisobga olish.

3.1.2. «Bank» ga tegishli to'lov hujjati kelib tushgan paytdan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan kelib tushgan pul mablag'larini «Omonatchi»ning hisobraqamiga kiritish.

3.1.3. «Omonatchining» yozma talabi bo'yicha hisobraqamdan ko'chirma (ma'lumotnoma) taqdim etish.

3.1.4. «Omonatchi» ning birinchi talabiga binoan qonunchilikda belgilangan tartibda pul mablag'lari (depozitni) yoki uning bir qismini qaytarish.

3.1.5. «Omonatchining» hisobraqamidagi omonat va operatsiyalar sirini saqlash va faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda bu to'g'risida ma'lumot taqdim etish.

3.2. «Bank» quyidagilarga haqli:

3.2.1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risidagi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda hisobvaraqdagi operatsiyalarni to'xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish.

3.2.2. Bank tariflarida nazarda tutilgan miqdorda omonat bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish, ma'lumotnoma berish uchun haq olish olish.

3.2.3. Bank tariflariga o'zgartirishlar kiritish va Bank faoliyatiga doir boshqa o'zgarishlarni, bundan kamida 30 taqvim kuni avval Bank binosida, shuningdek Bankning rasmiy veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali Omonatchini oldindan xabardor qilgan holda amalga oshirish.

3.2.4. Omonatchilarning manfaatlarini himoyasini ta'minlash uchun Bank, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga ko'ra zarur hollarda mijozning hisobraqamlaridagi pul mablag'lari qoldiqlarining omonat daftarchasiga mosligini to'liq inventarizatsiya qilish huquqiga ega.

3.2.5. Qonunchilik normalarida nazarda tutilgan hollarda ushbu Shartnomani bir taraflama bekor qilish.

3.2.6. Operatsiyalar 12 oy davomida amalga oshirilmagan taqdirda hisobraqamga «Harakatsiz omonat» taqini qo'yish va «Omonatchi» ning arizasi asosida depozitni tiklash.

3.2.7. Bank yangiliklarini, shuningdek, Omonatchining hisobraqamida amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi axborotni ushbu shartnomada ko'rsatilgan Omonatchining mobil telefon raqamiga SMS-xabarlar shaklida yoki jo'natma sifatida ko'rsatilgan elektron pochta manziliga yuborish.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnoma Taraflar imzolagan va hisob raqamiga mablag' kelib tushgan paytdan boshlab kuchga kiradi.

5.2. Shartnoma istalgan vaqtda «Omonatchii»ning arizasiga ko‘ra bekor qilinishi va hisobraqam yopilishi mumkin.

5.3. Shartnomani bekor qilish Omonatchining hisobraqamini yopish uchun asos hisoblanadi.

6. SHARTNOMANING QO‘SHIMCHA SHARTLARI

6.1. «Bank» va «Omonatchi» o‘rtasida ushbu shartnomaning bajarilishi bilan bog‘liq nizolar yuzaga kelgan taqdirda, Taraflar ularni o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal qilish uchun barcha choralarni ko‘rishadi.

6.2. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqilishi uchun tegishli sudga yuboriladi.

6.3. Ushbu shartnoma teng huquqiy kuchga ega ikki nusxada tuzilgan. Shartnomaning bir nusxasi «Bank»da, ikkinchisi - «Omonatchii»da qoladi.

6.4. Boshqa barcha masalalarda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, shu jumladan Fuqarolik Kodeksi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari qoidalari qo‘llaniladi.

6.5. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o‘zgartirish va qo‘shimchalar yozma ravishda tuzilgan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

6.6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqi uchun «Bank»dan litsenziyasini chaqirtirib olgan taqdirda, «Omonatchining» «Bankdagi» omonati bo‘yicha tovon to‘lanishini kafolatlash Fuqarolarni banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan amalga oshiriladi. Omonatchining Bankdagi depozitiga Fond tomonidan tovon to‘lash kafolati Bankni qayta tashkil etish munosabati bilan litsenziyani bekor qilish holatlariga tatbiq etilmaydi.

7. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI

«BANK»

«Tenge Bank» ATB

**Manzil: 100007, Toshkent shahri,
Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi, 66-uy
Tel: (+998 71) 203 88 99
MFO: 01176
STIR: 207 297 973**

Bo‘linmaning nomi

FIO

(imzo)

«OMONATCHI»

F.I.O :

Tug‘ilgan sanasi: _____

Fuqaroligi: _____

Pasport ma'lumotlari:

seriyasi ___ va raqami: _____

berilgan sanasi va joyi:

Mazil:

Telefon: +

(_____) _____

Omonatchining imzosi:

(Omonatchi o‘z qo‘li bilan to‘ldiradi)